Abstract. *This scientific article analyzes the human right to water as an independent and comprehensive legal category within the human rights system. The main objective of the article is to analyze the human right to water from a theoretical, legal, and practical perspective as an independent and comprehensive legal institution within the human rights system. Additionally, the article examines the views of foreign and domestic scientists on how water is considered a vital factor in ensuring human life, health, personal dignity, a decent standard of living, and sanitary and hygienic conditions. The study examines the theoretical and legal content of the right to water, its role in the human rights system, the state's obligations to provide the population with safe and high-quality drinking water, and existing practical problems in the implementation of this right. It also highlights the importance of the principles of equality, non-discrimination, social justice, openness, and accountability in ensuring the right to water.*

Keywords: *human rights, right to water, safe drinking water, adequate standard of living, right to health, sanitation, non-discrimination, state obligations*

Kirish

XXI asrda suv resurslari bilan bog'liq muammolar insoniyat oldidagi eng dolzarb global masalalardan biriga aylandi. Aholi sonining ortishi, urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi, sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlarining kengayishi, iqlim o'zgarishi hamda ekologik muammolar toza ichimlik suviga bo'lgan ehtiyojni keskin oshirmoqda. Ayniqsa Markaziy Osiyo mintaqasida suv tanqisligi nafaqat iqtisodiy yoki ekologik, balki ijtimoiy-siyosiy va huquqiy muammo sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Shu bois insonning suvga bo'lgan huquqi bugungi kunda inson huquqlari tizimining ajralmas va mustaqil elementi sifatida e'tirof etilmoqda. Suv inson hayoti uchun biologik zarurat bo'lish bilan birga, inson qadr-qimmatini, sog'lig'i, sanitariya-gigiyena sharoitlari hamda munosib turmush darajasining asosiy omili hisoblanadi. Shu sababli suvga bo'lgan huquqni faqat tabiiy resursdan foydalanish yoki kommunal xizmat ko'rsatish doirasida talqin qilish yetarli emas. Mazkur huquq yashash huquqi, sog'liqni saqlash huquqi, qulay atrof-muhitda yashash huquqi, oziq-ovqat xavfsizligi va ijtimoiy himoya huquqlari bilan chambarchas bog'liqdir.

O'zbekiston uchun ham suv masalasi strategik ahamiyatga ega. Mamlakatning qurg'oqchil hududda joylashgani, transchegaraviy suv resurslariga yuqori darajada bog'liqligi, Orolbo'yi ekologik inqirozi, suv infratuzilmasining eskirishi hamda iqlim o'zgarishi suv xavfsizligi masalasini milliy xavfsizlik darajasidagi muammoga aylantirmoqda. Shu sababli insonning suvga bo'lgan huquqini ilmiy-huquqiy jihatdan chuqur tadqiq etish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Suv masalasi bugungi kunda faqat tabiiy resurslardan foydalanish muammosi emas, balki insonning yashash, sog'liqni saqlash, munosib turmush darajasi va ekologik xavfsizlik huquqlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan kompleks huquqiy institut sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shu bois insonning suvga bo'lgan huquqini alohida tarmoq masalasi sifatida emas, balki inson huquqlari tizimining tarkibiy qismi sifatida talqin etish zarur. Xalqaro huquqda bu yondashuv, avvalo, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar doirasida shakllangan bo'lib, keyinchalik u sanitariya, sog'liq, atrof-muhit va taraqqiyot bilan bog'liq huquqiy standartlar bilan boyidi. BMTning Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar qo'mitasi amaliyoti suvdan foydalanish imkoniyati insonning munosib hayot kechirishi uchun zarur shart ekanini ko'rsatadi (United Nations Committee on Economic, Social and Cultural Rights, 2002).

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi insonning suvga bo'lgan huquqini inson huquqlari tizimidagi mustaqil va kompleks huquqiy institut sifatida nazariy-huquqiy hamda amaliy jihatdan tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- suvga bo'lgan huquqning xalqaro-huquqiy mazmunini ochib berish;
- suv huquqining inson huquqlari tizimidagi o'rnini aniqlash;
- suvga bo'lgan huquqning tarkibiy elementlarini tahlil qilish;
- davlatning suvga oid ijobiy majburiyatlarini o'rganish;
- O'zbekistonda suvga bo'lgan huquqning normativ-huquqiy asoslarini tadqiq etish;
- suv resurslarini boshqarishdagi mavjud amaliy muammolarni aniqlash;
- Markaziy Osiyo mintaqasida suv xavfsizligi bilan bog'liq muammolarni tahlil qilish;
- xorijiy tajriba asosida milliy qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.

Insonning suvga bo'lgan huquqi masalasi xalqaro huquqshunoslar, ekolog-huquqshunoslar va inson huquqlari bo'yicha mutaxassislar tomonidan keng tadqiq qilingan. Xorijiy olimlardan P. Glayk suvni *basic human necessity and human right* (insonning birlamchi ehtiyoj va huquqlari) sifatida talqin qilib, suv resurslarini global adolat muammosi sifatida o'rganadi (Gleick, 1998), S. Makkafrri esa transchegaraviy suv resurslari va davlatlar o'rtasidagi huquqiy majburiyatlarni tahlil qiladi (McCaffrey, 2019), M. Salman suv huquqini xalqaro suv huquqi va ekologik barqarorlik bilan bog'liq tizim sifatida ko'rib chiqadi (Salman & McInerney-Lankford, 2004), R. Nelson (2018) esa suvni boshqarishda institutsional mexanizmlarning rolini tadqiq qiladi.

Mazkur ilmiy qarashlar suv huquqini uch asosiy yo'nalishda rivojlantirgan:

- inson huquqlari kontekstida;
- ekologik huquq doirasida;
- transchegaraviy suv boshqaruvi tizimida.

Rossiya, Qozog'iston va boshqa MDH davlatlarida suv huquqi asosan ekologik huquqning tarkibiy qismi sifatida o'rganilgan. Xususan, ekologik xavfsizlik, suv resurslarini muhofaza qilish va davlat boshqaruvi masalalari ustuvor yo'nalish sifatida qaraladi. O'zbekistonda suv huquqi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar so'nggi yillarda faollashgan bo'lib bu yo'nalishda quyidagi olimlarning ishlari alohida ahamiyatga ega. H. Hayitov (2025) suv qonunchiligining evolyutsiyasi va uni takomillashtirish istiqbollari, suv huquqini ekologik huquq tizimidagi markaziy institut sifatida ko'rib chiqadi. So'nggi tadqiqotlarda ichimlik suvi bilan ta'minlashning ekologik-huquqiy muammolari, mintaqaviy suv resurslarini boshqarishning huquqiy asoslari, yerosti suvlarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish, shuningdek, aholi punktlarida tabiiy resurslardan foydalanishning ekologik-huquqiy tartibi hamda qulay atrof-muhit huquqini amalga oshirish mexanizmlari kompleks tahlil qilingan (Turdiyev, 2025).

Asosiy qism

Aholining toza ichimlik suvidan foydalanish huquqi alohida kompleks ekologik-huquqiy tartibga solishni talab qiladigan munosabatlar tizimidir. Ushbu huquqni ta'minlashda ichimlik suvidan foydalanish tartibi, ekologik talablar, davlat tomonidan tartibga solishning o'rni, ekologik ekspertiza hamda yuridik javobgarlik mexanizmlarining o'zaro uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, suvga bo'lgan huquq faqat resursga kirish imkoniyati bilan emas, balki suv zaxiralarini muhofaza qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish va davlat nazoratining samaradorligi bilan ham belgilanadi (Jumanov, 2019). Suvga bo'lgan huquqni milliy huquqiy tizim doirasida to'liq anglash uchun suv qonunchiligining rivojlanishi va uni takomillashtirish istiqbollarini alohida o'rganish zarur. Chunki suvdan foydalanish, uni muhofaza qilish, taqsimlash va nazorat qilishga doir huquqiy mexanizmlarning sifati mazkur huquqning real amalga oshirish darajasini belgilaydi. Shu ma'noda suv qonunchiligining evolyutsiyasi, undagi bo'shliqlar va istiqboldagi islohot yo'nalishlarini tahlil qilish insonning suvga bo'lgan huquqini institutsional jihatdan mustahkamlashning zarur sharti hisoblanadi (Hayitov, 2025).

BMTning Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar qo'mitasi 15-son umumiy izohida suv huquqini shaxsning shaxsiy va maishiy ehtiyojlari uchun yetarli, xavfsiz, maqbul, jismonan yetib borish mumkin bo'lgan va iqtisodiy jihatdan qulay suvga ega bo'lish sifatida izohlaydi. Bu ta'rif suvni shunchaki tabiiy ne'mat emas, balki huquqiy himoya obyektini sifatida ko'rish imkonini beradi. Mazkur yondashuvga ko'ra, davlatning vazifasi faqat suv yetkazib berish bilan cheklanmaydi; u suv manbalarini ifloslanishdan asrash, zaif qatlamlar uchun teng imkoniyat yaratish va diskriminatsiyasiz kirishni kafolatlashni ham o'z ichiga oladi. Keyinchalik BMT Bosh Assambleyasining 64/292-son rezolyutsiyasi xavfsiz va toza ichimlik suvi hamda sanitariyani inson huquqi sifatida tan oldi (United Nations General Assembly, 2010). Nazariy jihatdan qaralganda, suvga bo'lgan huquq ikki darajada namoyon bo'ladi. Birinchidan, u insonning minimal hayotiy ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan suvdan foydalanish imkoniyatini anglatadi. Ikkinchidan, u huquq sifatida sog'liqni saqlash, oziq-ovqat, uy-joy, sanitariya va qulay atrof-muhit huquqlarining amalga oshirish sharti bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli suv taqchilligi nafaqat iqtisodiy samaradorlikning pasayishiga, balki ijtimoiy tengsizlikning

chuqurlashishiga, kambag'allikning ortishiga va ayrim hollarda majburiy migratsiya xavfining kuchayishiga olib keladi. JST va BMTning Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi manbalari xavfsiz ichimlik suvi va sanitariyaning yetishmasligi sog'liq, ta'lim va inson qadr-qimmatiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir qilishini ta'kidlaydi (Office of the United Nations High Commissioner for Human Rights, 2010).

Suvga bo'lgan huquqning tarkibiy elementlari odatda besh mezon orqali ochib beriladi: yetarlilik, xavfsizlik, maqbullik, jismoniy ochiqlik va iqtisodiy ochiqlik. Yetarlilik shuni anglatadiki, suv miqdori insonning ichimlik, ovqat tayyorlash va asosiy gigiyenik ehtiyojlari uchun kifoya qilishi kerak. Xavfsizlik suvning inson salomatligiga xavf tug'dirmasligini, maqbullik esa uning rang, hid va ta'm jihatidan maishiy foydalanish uchun yaroqliligini bildiradi. Jismoniy ochiqlik suv manbasining hududiy va texnik jihatdan yetib borish mumkin bo'lishini talab qilsa, iqtisodiy ochiqlik suv narxi aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari uchun to'siqqa aylanmasligini nazarda tutadi. Bu yondashuv suvni tovar sifatida emas, avvalo, huquqiy va ijtimoiy ne'mat sifatida baholash zarurligini ko'rsatadi (United Nations Committee on Economic, Social and Cultural Rights, 2002).

Markaziy Osiyo sharoitida suvga bo'lgan huquq alohida dolzarblik kasb etadi. Mintaqada suv tanqisligi tabiiy-iqlimiy, demografik va institutsional omillar yig'indisi ta'sirida keskinlashmoqda. Jahon banki va mintaqaviy iqlim bo'yicha rasmiy manbalarda ham muzliklarning tez erishi, daryo oqimlarining mavsumiy va yillik o'zgaruvchanligi ortib borayotgani, shuningdek, eskirgan irrigatsiya va drenaj infratuzilmasi sabab suv yo'qotishlari yuqori ekanligi qayd etilgan. Bu holat suv huquqining amaliy ta'minlanishi ko'p jihatdan transchegaraviy boshqaruv, iqlim moslashuvi va suv infratuzilmasini modernizatsiya qilish bilan bog'liq ekanini ko'rsatadi (World Bank, 2025). Ayniqsa iqlim o'zgarishi suv huquqining mazmunini yanada kengaytirmoqda. Avvallari suv taqchilligi ko'proq xo'jalik muammosi sifatida ko'rilgan bo'lsa, bugun u iqlim xavfsizligi, oziq-ovqat xavfsizligi va inson xavfsizligining markaziy unsurlaridan biriga aylangan. Muzliklarning qisqarishi, yog'in rejimining o'zgarishi va uzoq davom etuvchi qurg'oqchiliklar suvga bo'lgan huquqni barqaror ravishda ta'minlashni murakkablashtirmoqda. Shu sababli zamonaviy huquqiy yondashuvlar suv huquqini statik emas, balki iqlimga moslashuvchan huquq sifatida talqin etishni talab qiladi. Bunda davlatlardan favqulodda choralar emas, balki oldindan rejalashtirilgan moslashuv siyosati, xavf tahlili va uzoq muddatli boshqaruv talab etiladi.

Markaziy Osiyo davlatlari uchun suv – bu shunchaki resurs emas, balki hayot va kelajak demak. Shu jihatdan, Ostona sammiti “Markaziy Osiyo – yagona va ahil oila” strategik g'oyasining navbatdagi amaliy ifodasidir. Sammit doirasidagi tadbirlar davomida Markaziy Osiyoning barqaror taraqqiyoti yo'lida o'zaro hamkorlikni mustahkamlash, mintaqaning dolzarb ekologik, iqlim hamda suv muammolarini hal etish masalalari muhokama qilindi. Aytish kerakki, agar mintaqa davlatlari bugun suv va ekologiya masalasida qat'iy tartibli qarorlarga kelmasa, ertaga iqtisodiy zarar hamda ijtimoiy inqirozlarning oldini olish imkonsiz bo'lib qoladi. Shu sababli ushbu sammit kelajak avlodlar oldidagi mas'uliyatni his qilgan holda tashlangan eng muhim qadam desak ayni haqiqat. Qolaversa, Orolni qutqarish va suv xavfsizligini ta'minlash mintaqaviy birlikning eng oliy sinovidir. Tanqislik kuchayayotganiga qaramay, Markaziy Osiyo davlatlari vaziyatni o'zgartirishga qattiq kirishgan. Yetakchilar muloqotlarda suvdan samarali foydalanish va hamkorlikni rivojlantirishga alohida urg'u berdi. Prezidentimiz mintaqaviy ekologik sammitdagi nutqida Markaziy Osiyo davlatlarini iqlim va ekologiya muammolari qarshisida, xavf-xatarlarni yangi “o'sish nuqtalari”ga aylantirgan holda hamkorlikda harakat qilishga chaqirib, qator aniq takliflarni ilgari surdi. Shulardan biri atmosfera havosining sifati yomonlashayotgan sharoitda “Markaziy Osiyoning toza havosi” davlatlararo konsorsiumini ta'sis etish masalasi. Bu mintaqa aholisi salomatligini himoya qilishda muhim qadam bo'ladi (Mirzayev, 2026).

O'zbekiston uchun ushbu masala alohida dolzarb. Milliy qonunchilikda suvdan oqilona foydalanish, suvlarni ifloslanish va kamayib ketishdan saqlash, shuningdek, suvga doir munosabatlarda fuqarolar hamda xo'jalik yurituvchi subyektlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish vazifalari mustahkamlangan. Shuningdek, ekologik qonunchilik fuqarolarning qulay atrof-muhitga ega

bo'lish huquqini kafolatlashni maqsad sifatida belgilaydi. Bu normalar suvga bo'lgan huquqning bevosita konstitutsiyaviy nom bilan emas, ekologik xavfsizlik, qulay atrof-muhit va suv resurslaridan oqilona foydalanish institutlari orqali milliy huquqiy tizimga kirib kelganini ko'rsatadi. Demak, O'zbekistonda suv huquqini mustaqil normativ kategoriya sifatida yanada aniqroq ifodalash va uni amaliy kafolatlar bilan boyitish uchun huquqiy asoslar allaqachon mavjud. Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo'mitasida, 22-mart – Butunjahon suv kuni oldidan, "Suv resurslari va ulardan foydalanishdagi ustuvor vazifalar" mavzusida davra suhbatlari o'tkazildi. Davra suhbatida 2020–2030-yillarga mo'ljallangan suv xo'jaligini rivojlantirish konsepsiyasi, shuningdek, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasidagi vazifalar alohida qayd etilgani ham muhimdir. Ya'ni suvga bo'lgan huquqning real ta'minlanishi ko'p jihatdan suv hisobi, monitoring, taqsimotning shaffofligi va infratuzilma samaradorligiga bog'liq bo'ladi. Shu sababli suv sohasini raqamlashtirish va boshqaruvni modernizatsiya qilish bu huquqning institutsional kafolatlari sifatida talqin qilinishi lozim.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasi raisi Ravshan Mamutovning "Xalq so'zi" gazetasida e'lon qilingan maqolasida suv resurslaridan oqilona foydalanish masalasi global demografik o'sish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining kengayishi va sanoat tarmoqlarining rivojlanishi bilan bog'liq holda yoritiladi. Maqolada suv tanqisligi endilikda faqat tabiiy resurs yetishmovchiligi emas, balki transchegaraviy boshqaruv, adolatli taqsimot va ekologik xavfsizlik bilan bog'liq murakkab siyosiy-huquqiy muammo sifatida talqin qilinadi. Bu yondashuv insonning suvga bo'lgan huquqini tor ma'nodagi xo'jalik masalasi emas, balki yashash, sog'liqni saqlash, oziq-ovqat xavfsizligi va qulay atrof-muhit bilan uzviy bog'liq huquq sifatida baholash imkonini beradi. PQ-79-son qarorda mavjud suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanish, suv yo'qotishlarining oldini olish hamda suv tanqisligining salbiy oqibatlarini yumshatish bevosita asosiy maqsad sifatida belgilangan. Qaror bilan suv yo'qotilishi yuqori bo'lgan 389 km kanallarni rekonstruksiya qilish va betonlashtirish, yiliga o'rtacha 206 mln kub metr suv hamda 26 mln kilovatt-soat elektr energiyasini iqtisod qilish, sug'oriladigan 158,4 ming gektar yerlarning suv ta'minotini yaxshilash vazifalari qo'yilgan. Bu ko'rsatkichlar suv siyosatining texnik va iqtisodiy mazmuni bilan birga, suvga bo'lgan huquqning amaliy kafolatlari mavjudlik, barqarorlik va yetkazib berish ishonchligini kuchaytirishga qaratilganini ko'rsatadi (President of the Republic Uzbekistan, 2026). Hujjatda 2026-yil birinchi choragi yakunlari bo'yicha oshirib bajarilgan daromadlar hisobidan 600 mlrd so'm mablag' ajratilishi, shundan 480 mlrd so'm kanallar va sug'orish tarmoqlarini betonlashtirishga, 120 mlrd so'm esa suv tanqisligining oldini olishga qaratilgan choralar uchun yo'naltirilishi belgilangan. Bu holat ilmiy nuqtayi nazardan shuni anglatadiki, suvga bo'lgan huquqni ta'minlash faqat deklarativ normalar bilan emas, balki aniq moliyaviy mexanizmlar bilan mustahkamlanayotgan huquqiy institutga aylanmoqda. Davlatning ijobiy majburiyatlari aynan shu kabi byudjet va investitsiya choralarida namoyon bo'ladi. Bu yondashuv Suv kodeksining suvdan oqilona foydalanish, muhofaza qilish va boshqaruvning iqtisodiy-huquqiy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan mazmuni bilan hamohangdir (Mamutov, 2026).

Jahon banki guruhi tarkibidagi Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi tomonidan 2025-yil 24-aprelda tayyorlangan "O'zbekiston Respublikasi uchun Milliy irrigatsiya va energiya samaradorligini oshirish loyihasi (P504600) bo'yicha loyiha baholash hujjati" suvga bo'lgan huquqni bevosita normativ tarzda sharhlamasa-da, ushbu huquqning amalda ta'minlanishiga ta'sir qiluvchi institutsional va infratuzilmaviy omillarni aniq ko'rsatib beradi (World Bank, 2025). Hujjatga ko'ra, loyiha "Water Efficiency and Conservation" ko'p bosqichli dasturining birinchi bosqichi hisoblanadi. Unda qarz oluvchi sifatida O'zbekiston Respublikasi, amalga oshiruvchi organ sifatida esa Suv xo'jaligi vazirligi ko'rsatilgan, umumiy loyiha qiymati 223,2 mln AQSh dollari bo'lib, shundan 200 mln AQSH dollarini IDA krediti tashkil etadi. Mazkur holat suv resurslarini boshqarish masalasi davlatning ijobiy majburiyatlari bilan uzviy bog'liq ekanini, ya'ni suvga doir huquqiy kafolatlar faqat deklarativ normalar bilan emas, balki real moliyaviy va tashkiliy mexanizmlar orqali mustahkamlanishini

ko'rsatadi. Hujjatda keltirilgan sektor ko'rsatkichlari O'zbekistonda suvga bo'lgan huquqning eng zaif nuqtasi resursning mutlaq yetishmasligidan ko'ra, uning yetkazib berilishi va boshqarilishidagi tizimli samarasizlik ekanini ko'rsatadi (World Bank, 2025). Xususan, O'zbekistonda suv omborlari sig'imi 22 km³, sug'orish tarmog'i uzunligi 182 825 km, uning 70 foizi qoplamasiz, nasos stansiyalari soni 1 688 ta, sug'orishga moslashtirilgan maydon 4,2 mln gektarni tashkil etadi; sug'orishning 84 foizi yer usti usullariga, 16 foizi esa tomchilatib sug'orishga to'g'ri keladi. Shu bilan birga, mintaqada dala boshiga yetib boradigan suv ulushi o'rtacha 60 foiz atrofida ekanligi, O'zbekistonda irrigatsion suv unumdorligi 0,4 AQSH dollari/m³ bo'lib, global og'irlashtirilgan o'rtacha ko'rsatkich 19 AQSH dollari/m³ dan ancha pastligi qayd etilgan. Bu ma'lumotlar suvga bo'lgan huquqni ta'minlashda "suv manbai mavjudligi"ning o'zi kifoya emasligini, ushbu huquqning real mazmuni suvni oqilona yetkazib berish, yo'qotishlarni kamaytirish va infratuzilmani modernizatsiya qilish bilan chambarchas bog'liq ekanini anglatadi (World Bank, 2025).

Hujjatning yana bir muhim xulosasi shundan iboratki, suvdan foydalanishdagi samarasizlik nafaqat iqtisodiy zarar, balki ijtimoiy va ekologik xavf omiliga ham aylanmoqda. Unga ko'ra, eskirgan nasosli sug'orish tizimlarining elektr xarajatlari O'zbekiston suv xo'jaligi sektori byudjet xarajatlarining 65–70 foizini egallaydi hamda yiliga 3 million tonnadan ortiq CO₂ emissiyasiga sabab bo'ladi. Demak, suvga bo'lgan huquq masalasi iqlim o'zgarishi, ekologik xavfsizlik va moliyaviy barqarorlik bilan o'zaro bog'liq bo'lib, uni faqat kommunal yoki qishloq xo'jaligi boshqaruvi doirasida tushuntirish yetarli emas. Loyiha Surxondaryo, Qashqadaryo, Buxoro, Qoraqalpog'iston va Namangandagi oltita irrigatsiya-drenaj sxemasini qamrab olib, 232 352 gektar maydon va 179 188 nafar foydalanuvchiga xizmat ko'rsatishi ko'zda tutilgan. Hujjatda to'g'ridan to'g'ri foyda ko'ruvchilar soni taxminan 930 ming kishi deb baholanadi, bilvosita ijobiy ta'sir esa loyiha joylashgan tumanlardagi 4,2 mln aholiga yetishi mumkinligi qayd etiladi. Bu suvga bo'lgan huquqni individual shaxsiy ehtiyoj bilan cheklanmaydigan, balki jamoa hayoti, qishloq xo'jaligi barqarorligi va hududiy ijtimoiy xavfsizlik bilan bog'liq huquq sifatida baholash imkonini beradi.

Xulosa

Insonning suvga bo'lgan huquqi inson huquqlari tizimida hosilaviy yoki ikkilamchi huquq emas, balki boshqa ko'plab huquqlarning real ta'minlanishi uchun zarur bo'lgan tayanch huquqiy institutdir. Markaziy Osiyodagi suv tanqisligi, iqlim o'zgarishi, muzliklarning qisqarishi va eskirgan infratuzilma sharoitida ushbu huquqning ahamiyati yanada ortmoqda. Shu sababli suvga doir siyosatni faqat resurslarni taqsimlash yoki irrigatsiya samaradorligi bilan cheklab bo'lmaydi. Uni inson qadr-qimmati, tenglik, ekologik adolat va kelajak avlodlar manfaatlarini nuqtayi nazaridan qayta talqin qilish zarur. Faqat shundagina suv xavfsizligi masalasi haqiqiy ma'noda inson huquqlari xavfsizligiga aylanishi mumkin.

REFERENCES

Ashirbayeva, M. Kh. (2020). *O'zbekiston davlatining mintaqaviy suv resurslaridan oqilona foydalanishni tashkil etish funksiyasi va uning huquqiy jihatlarini* [The function of organizing the rational use of regional water resources by the State of Uzbekistan and its legal aspects] (Abstract of doctoral dissertation). <https://justy.uz/wp-content/uploads/2024/11/Ashirbaeva.M.X.-0%E2%80%98zbekiston-davlatining-mintaqaviy-suv-resurslaridan-oqilona-foydalanishni-tashkil-etish-funksiyasi-va-uning-huquqiy-jihatlarini-PhD-avtoreferat.-12.00.01.-Toshkent-2020.pdf>

Gleick, P. H. (1998). The human right to water. *Water Policy*, 1(5), 487–503. [https://doi.org/10.1016/S1366-7017\(99\)00008-2](https://doi.org/10.1016/S1366-7017(99)00008-2)

Hayitov, H. S. (2025). *O'zbekiston Respublikasida suv qonunchiligining rivojlanishi va takomillashtirish istiqbollari* [Development and prospects for improving water legislation in the Republic of Uzbekistan] (Doctoral dissertation). Tashkent State University of Law. <https://tsul.uz/uz/announces/351>

Hayitov, H. S. (2025). *O'zbekiston Respublikasida suv qonunchiligining rivojlanishi va takomillashtirish istiqbollari* [Development and prospects for improving water legislation in the Republic of Uzbekistan]. Zenodo. <https://zenodo.org/records/16929411>

Jumanov, A. O. (2019). *Aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlashning ekologik-huquqiy muammolari* [Environmental and legal problems of providing the population with clean drinking water] (Abstract of doctoral dissertation). <https://justy.uz/wp-content/uploads/2024/11/Jumanov.A.O.-Aholini-toza-ichimlik-suvi-bilan-taminlashning-ekologik-huquqiy-muammolari.-PhD-avtoreferat.-12.00.06.-Toshkent-2019.pdf>

Mamutov, R. (2026, March 17). Suv resurslaridan oqilona foydalanish va suv tanqisligining oldini olish masalalari. *Xalq so'zi*, No. 51(9222).

McCaffrey, S. C. (2019). *The law of international watercourses* (3rd ed.). Oxford University Press.

Mirzayev, B. (2026, April 23). Suv resurslaridan oqilona foydalanishning mustahkam zamini [A solid foundation for the rational use of water resources]. *Xalq so'zi*, No. 80(9251).

Nelson, R. (2018). *Regulating cumulative impacts in groundwater systems: Global lessons from Australian experience*. In C. Holley & D. Sinclair (Eds.), *Reforming water law and governance: From stagnation to innovation in Australia* (pp. 237–256). Springer.

Office of the United Nations High Commissioner for Human Rights. (2010). *Fact sheet No. 35: The right to water*. <https://www.ohchr.org/en/publications/fact-sheets/fact-sheet-no-35-right-water>

President of Uzbekistan. (2026, March 5). *Resolution "On additional measures to reduce water losses in irrigation and prevent water scarcity"* (No. RP-79). Lex.uz.

Saidakhmedov, U. G. (2023). Civil-legal issues of regulation of water use: The need to adopt the Water Code of the Republic of Uzbekistan. *Society and Innovations*, 4(1), 55–61. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss1-pp55-61>

Salman, S. M. A., & McInerney-Lankford, S. (2004). *The human right to water: Legal and policy dimensions*. World Bank. <https://doi.org/10.1596/0-8213-5922-3>

Turdiyev, B. S. (2025). *Insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqini amalga oshirish va ta'minlash: Qiyosiy-huquqiy tahlil* [Implementation and protection of the human right to a favorable environment: A comparative legal analysis] (Abstract of doctoral dissertation). <https://justy.uz/wp-content/uploads/2026/02/Turdiyev-B.S.-Insonning-qulay-atrof-muhitga-bo%E2%80%98lgan-huquqini-amalga-oshirish-va-taminlash-qiyosiy-huquqiy-tahlil.-PhD-avtoreferat.-12.00.13.-Toshkent-2025.pdf>

United Nations Committee on Economic, Social and Cultural Rights. (2002). *General Comment No. 15: The right to water (Articles 11 and 12 of the International Covenant on Economic, Social and Cultural Rights)*. <https://www.ohchr.org/en/water-and-sanitation/about-water-and-sanitation>

United Nations General Assembly. (2010). *The human right to water and sanitation (Resolution A/RES/64/292, 28 July 2010)*. <https://digitallibrary.un.org/record/687002>

World Bank. (2025, April 24). *National Irrigation and Energy Efficiency Improvement Project (P504600): Project appraisal document (Report No. PADHI00554)*. <https://documents1.worldbank.org/curated/en/099042825213520583/pdf/BOSIB-8068c24d-2c9c-4d0d-9622-98d13b511cb2.pdf>

**O'ZBEKISTON
QONUNCHILIGI TAHLILI**

ILMIY-TAHLILIIY JURNAL
2026-YIL 2-SON

**ОБЗОР
ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА
УЗБЕКИСТАНА**

НАУЧНО-АНАЛИТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
2026 ГОД № 2

**UZBEKISTAN
LAW REVIEW**

SCIENTIFIC ANALYTICAL JOURNAL
2026 ISSUE 2

VOLUME 3 / ISSUE 2 / 2026

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.3.2.

ISSN 2181-8118

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.